Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	III. Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar				
O‘quv modul	3.3. Matematikaning muayyan bo‘limlarini o‘qitish metodikasi				
Mavzu	Ko‘pburchaklar va ularning xossalarini o‘qitish metodikasi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarning uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini innovatsion yondashuvlar haqida nazariy va amaliy bilimlarini boyitish. • O‘qituvchilarning hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish - Mavzu bilan tanishtirish - Mashg‘ulotning dolzarbligi bo‘yicha fikr almashish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli savol orqali mavzuga kirish;	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	- Uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini o‘qitishda innovatsion	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	4-7- slaydlar	O‘qituvchilar fanni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni nazariy jihatdan o‘rganadi.

	yondashuvlarni tushuntirish; - Interfaol metodlarning mavzuga qo‘llanilishi - Slaydlar bilan tushuntirish				
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish; - Muammoli vaziyatlarni muhokama qilish;	25	Guruhlarda ishlash	8-12-slaydlar 2-ilova	O‘qituvchilar guruhlarda ishlash amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muhokama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish;	20	Suhbat, muhokama, tahlil		O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- "Men nimani o‘rgandim?" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	13-slayd 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	14-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova

Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi:

Uchburchak va to‘rtburchaklarning perimetri va yuzini topish mavzularini o‘qitishda samarali bo‘lishi uchun qo‘llanadigan qanday metod va vositalarni afzal deb bilasiz? Nima uchun?

2-ilova

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi mavzular bo‘yicha texnologik xarita ishlab chiqiladi.

1-guruh: Uchburchakning turlari;

2-guruh: Uchburchakning burchaklari;

3-guruh: Geometrik shakllardagi noma’lum burchakni topish;

4-guruh: Parallelogramm, romb va trapetsiyaning xossalari.

3-ilova

Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?